



AMIR TEMUR QABRINING OCHILISHI

Tursunova Dildora

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Xasanov Murod

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur Maqolada Sohibqiron Amir Temur qarini ochish jarayoni haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan

Kalit so'zlar: Gerasimov, Samarqand, Sadriddin Ayniy, Qori Niyoziy, Stalin, Sovet Ittifoqi, Arxeologiya, Mirzo Ulug'bek, Shoxrux Mirzo, Amir Temur maqbarasi.

Kirish. 1941-yilning 16–22-iyun kunlarida Sovet Ittifoqi hukumati qarori bilan Go'ri Amir maqbarasidagi Temuriylar sulolasi qabrlari ochiladi. Ekspeditsiya davomida Amir Temur, uning o'g'illari va nabiralarining jasadlari o'rganilgan. Tadqiqot natijasida antropolog Mixail Gerasimov Amir Temur qiyofasini yaratadi

Amir Temur va temuriylar qabrining ochilishi tarixi — Buyuk sarkarda, Sohibqiron Amir Temur Xitoyga yurish chog'ida, 1405-yil 18-fevral kuni O'tror shahrida vafot etadi. Uning vafotidan so'ng, bir necha asrlar davomida uning aynan qayerda dafn etilganligi bo'yicha turli xil ma'lumotlar mavjud edi. Ba'zi manbalar uning aynan O'trorda dafn qilinganligini, boshqalarida esa Temurning jasadi Samarqandga olib kelinib, Go'ri Amir maqbarasiga ko'milganligi haqida yozilgan.

Bundan 84 yil ilgari sobiq Sovet Ittifoqi olimlaridan iborat guruh Samarqanddagi Go'ri Amir maqbarasiga aynan ushbu ma'lumotga aniqlik kiritish uchun ekspeditsiya o'tkazadi. Ekspeditsiyaning maqsadi — Amir Temur qabrini aniqlash va O'rta asrlarda yashab, faoliyat yuritgan Temuriylar sulolasini ilmiy asosda tekshirib o'rganish deb ko'rsatilgandi. Ekspeditsiya guruhi Samarqand viloyati hokimligi ma'lumotlariga ko'ra, Temuriylar xilxonasini o'rganish uchun



tashkil etilgan hukumat ekspeditsiyasi tegishli hujjatlarni tayyorlab, Stalinning buyrug'iga ko'ra 1941-yilning 15-iyunida Samarqandga yetib keladi. Ekspeditsiyaga boshliq qilib olim va jamoat arbobi Qori-Niyoziy tayinlandi, guruhga tilshunos olim A. Semyonov, antropolog olim Mixail Gerasimov, taniqli yozuvchi Sadriddin Ayniylar kiritiladi. Haykaltarosh skulptor-antropolog Gerasimov tarixiy shaxslarning bosh chanoqlari asosida o'zi yaratgan qiyofalar haqida ma'lumot berdi va suratlar majmuasini namoyish qiladi. Qabrlarning ochilishi

1941-yil 16-iyunda ekspeditsiya a'zolari ertalab Amir Temur maqbarasida yig'iladi. Shu paytda qabrlarni qaysi tartibda ochish haqida bahs boshlanadi. Gerasimov qabrlarni bir boshdan, ya'ni eng chekkadagi Mir Sayyid Umar qabrini ochishdan boshlashni taklif qiladi. Arxeolog V.A.

Shishkin esa Mir Sayid Umar va Mir Sayyid Barakalarning qabrlariga tegmaslikni taklif qiladi. U o'z fikrini hukumat ekspeditsiyasi asosan Temur va temuriylar qabrlarini o'rganish uchun tuzilganligini, xilxonadagi barcha qabrlarni ochishga vaqt yetishmasligini va boshqa sabablar bilan dalillaydi.

Undan so'ng 17-iyun kuni Amir Temurning kichik o'g'li Shohrux Mirzoning qabri ochiladi. O'rganishlar davomida uning jasadi mumiyolanganligi ma'lum bo'ladi. Uning suyuklari Samarqand davlat universitetida o'rganiladi. 18-iyun kuni ekspeditsiya Amir Temurning nabirasi, Mirzo Ulug'bekning qabrini ochadi. Qabrda Ulug'bekning boshi tanasidan nariroqda, yuzi yerga qaratilgan holda qo'yilganligi, bosh chanog'i bilan birga uchta bo'yin umurtqasi qo'yilganligi aniqlanadi. Uchinchi umurtqada o'tkir tig'ning izi yaqqol ko'rinadi. Gerasimov o'ldirilgan Ulug'bek bosh chanog'ini diqqat bilan o'rganib chiqib, qilich tig'ining izi uning pastki jag'ida ham qolganligini aniqladi. Uning fikricha, zarb nihoyatda kuchli bo'lib, Ulug'bek tizzalangan holatda bo'jgan va qotil u bilan yuzma-yuz turib, o'ngdan chap tomonga qarab qilich solgan. Umurtqada qolgan izlarga qaraganda, qilich juda o'tkir va qotil bu borada katta tajribaga ega bo'lgan.

19 -iyun, payshanba kuni sohibqiron Amir Temurning qabrini ochishga kirishiladi. Uning qabri o'g'illarining qabridan ancha farq qilib, salobati va



ulug'vorligi bilan ajralib turadi. Sohibqiron ko'milgan joy 20 santimetr qalinlikdagi og'ir marmartosh bilan bekitilgan bo'lib, toshning uzunligi 245 sm, eni esa 90 santimetr bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra, bu qabrtoshga boshqa, ikkinchi yupqa qilib tarashlangan va yozuv bitilgan oniks (aqiq) toshi yopishtirilgan. Uning lahadi tarashlangan tosh taxtalardan yasalgan bo'lib, uzunligi 3 m, eni va chuqurligi 1 metr bo'lgan. Tobutning ustiga qoramtir ko'kish rangli gazlama yopilganligi aniqlanadi. Tobutning rangi qoramtir, yog'ochlari baquvvat, silliqlangan taxtalardan yasalgan bo'lib, alohida qopqog'i ham bo'lgan. Tobutning to'rt burchagida to'rtta oyoqchasi bo'lib, uni zax yerga tegib turishidan asragan. Tobutni yasagan ustalar uni mustahkamlash uchun to'rt burchakli temir mixlardan foydalanishgan. Tobutning qopqog'i ustida ikki qismdan iborat bo'lgan gazlama parchalari, gazlamaning bosh tomonidagi qismida esa oltin iplar bilan solingan naqshlar saqlangan. Gazlama yomon saqlangani, ya'ni qabrni suv bosganligi oqibatida chiriganligi uchun naqshning butunicha ko'rinishini tiklashning iloji bo'lmagan. Gazlama ipakdan nafis qilib to'qilgan bo'lib, uning o'rtarog'ida oltin iplar bilan bitilgan arabcha imlodagi yozuvlar bo'lgan.

Arxeolog V. Shishkin Amir Temurning tobuti ustiga yozilgan gazlama qandaydir avliyoning qabri ustidan olingan yoki Ka'badan olib kelinganligini taxmin qilgan. Ekspeditsiya rahbari, professor Qori-Niyoziy esa "bu gazlama sohibqironning jangovar bayrog'i bo'lishi mumkin" degan taxminni aytgan. Tobut ustiga yopilgan gazlamaning rangi qora bo'lib, u ipakdan to'qilgan va tobut qopqog'ini butunicha qoplab turgan. 21-iyun, shanba kuni ham Amir Temur qabrini ochish ishlari davom etdi. Ekspeditsiya a'zolari tobutning qopqog'i ochilgach, atrofnı allaqanday xushbo'y hid qoplaganligini aytishgan. Manbalarga ko'ra, Amir Temur O'tror shahrida vafot etganda, uning jasadini Samarqandga olib kelib, dafn etish uchun mumiyolash zarur bo'lgan. Shu sababli undan taralgan hidlar mumiyolash paytida ishlatiladigan moylarning hidi ekanligi aytiladi. Amir Temur maqbarasi, qabr Amir Temurning jasadi uzun qilib yotqizilgan holda, yuzi esa qibla tomonga qaratilgan holatida ekanligi aniqlangan. Suyaklarning mumiyolangan muskullar, teri parchalari bo'lgan. Jasadning usti yupqa loyqa va tuzlar bilan



qoplangan bo'lib, bu suv toshqinlari tufayli qabrga kirgan suvning qoldiqlari ekanligi aytiladi. ba'zi joylariga kafan qoldiqlari yopishib qolgan va bosh, bo'yin, oyoq tomonlarida Ehtiyotkorlik bilan qabrdan chiqarib olingan Amir Temurning bosh chanog'i uch soat davomida soya joyda quritiladi. Shundan so'nggina bosh chanoqni kimyoviy usullar bilan mustahkamlash mumkin bo'ladi. Bundan oldin antropologlar Amir Temurning bosh chanog'ida qisman saqlanib qolgan soch, soqol va qoshlarining qoldiqlarini avaylab ko'chirib olgan. Uning sochi va soqolining rangi sarg'ishtir, xuddi zanglagan temirning rangiga o'xshash bo'lgan. Shunda olimlarda, Amir Temurning soch-soqoli bo'yalganmikan degan fikr uyg'onadi. Shuning uchun kimyogar-olim V.Kononov uning sochlarini kimyoviy usullar bilan tekshirib ko'radi. Olim soch-soqolning rangi tabiatan shunday bo'lganligini aniqlaydi.

Ekspeditsiya jasadning suyaklarini o'rganib, Amir Temurning o'ng qo'li bukilmaganligi va o'ng oyog'i oqsoq bo'lganligi haqidagi xabar haqiqatga to'g'ri kelishini ham isbotlaydi. Antropolog Gerasimov Amir Temur 70 yildan ko'proq umr ko'rganligiga qaramay, uning bosh chanog'ida va boshqa suyaklarida keksalik alomatlari ko'rinmaganligini ta'kidlagan.

Amir Temurning soch tolalari qalin va to'g'ri bo'lib, sarg'ish-qo'ng'ir rangda, sal-pal oq ham oralagan. Uning bosh chanog'ida qoshlarining qoldiqlari ham saqlangan bo'lib, uzunligi 12–14 millimetrgacha borgan va rangi to'q-jigarrang bo'lgan. Mo'ylovi saqlanmagan. Gerasimov bosh chanoqdagi o'rniga qarab uning mo'ylovi uzun, labidan ham pastga tushib turganligini aniqlagan. 22–23-iyun kunlari esa hukumat ekspeditsiyasi Amir Temurning nabirasi Muhammad Sultonning qabrini ochib, jasadni o'rganish ishlarini olib boradi. 24-iyunda ekspeditsiya ishi yakunlanadi. Qabrlardan olingan suyaklarni o'rganish natijasida Gerasimov Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Shohruxlarning yuz ko'rinishini tiklaydi. 1941-yilning 9-dekabr sanasida Toshkentda ularning suratlarini qabul qilish maqsadida yig'ilish o'tkaziladi.

Temurning “qarg'ishi”(mi?) Amir Temurning qabri 21-iyunda ochilib bo'linib, jasadi chiqariladi. Aynan ushbu kunning ertasiga, 22-iyun kuni Germaniya



qo'shinlarining sobiq Sovet Ittifoqi hududiga bostirib kirganligi sababli ayrimlar mazkur voqeani Ikkinchi jahon urushi boshlanishiga ta'sir qilgan "ilohiy omil" sifatida qarashgan. Qayumov o'z kitobida shunday yozadi: "Uzoq davom etgan suratga olish ishlaridan so'ng bir piyola choy ichish uchun choyxonaga kirdim. Qarasam, uchta chol choy ichib o'tirishgan ekan. Qo'llarida esa kattakon kitob bor edi. Ulardan biri Temur qabri ochilishida aloqam bor yoki yo'qligi bilan qiziqdi. Hazillashib "eng katta boshlig'iman", deb aytdim, chunki mening buyrug'im bilan chiroqlar yoqilar edi. "Temurning qabrini ochmaslik kerak, ochsa urush ruhi chiqadi", deb aytdi.

Bu gap 1941-yil yo 16, yo 17-iyun kuni sodir bo'ldi. "Bu nimadan ma'lum", deb so'radim men. Chol kitobdagi yozuvni ko'rsatib, kulibroq arabcha o'qishni bilasizmi, deb so'radi. Men "bilaman" deb javob berdim. Javobim ularni ajablantirdi, chunki bu paytda biz kirill alifbosiga o'tib bo'lgan edik. Ular mendayin yosh yigitni arabcha o'qishni bilmaydi deb o'ylashgan edi. Men kitobda haqiqatan ham "Temurning qabrini ochish mumkin emas, ochilsa urush ruhi chiqadi va qiyomatli kunlar boshlanadi", degan yozuvni o'qidim. Bu gaplar haqida Qori Niyoziy, Semyonov va Ayniyga aytdim. Ular ham kelib kitobni ko'rishdi, kulishdi. Domla Ayniy bularning barini safsata dedi va chollarni choyxonadan haydab yubordi. Men o'zimning tajribasizligim va g'o'rligimdan o'sha kitobni va chollarni suratga olmaganimdan hozir juda qattiq pushaymon qilmoqdaman". Malik Qayumov bu gaplarni Stalingacha ham yetkazadi, shundan keyin esa Temur suyaklari qaytadan dafn etiladi. Yana bir tasodif bilan aynan Amir Temurning jasadi qabrga qaytarilgach va qabr yopilgach Sovet Ittifoqi qo'shinlari g'alabalarni qo'lga kiritishni boshlaydi.

Xulosa

Mafkura siquvidan qutulish, tariximizga to'g'ri munosabatda bo'lish imkonini yaratdi. Amir Temur va uning davrini o'rganishga bag'ishlangan qator manbalar, kitoblar, jumladan, Bo'riboy Ahmedovning Amir Temur haqidagi katta romanxronikasi nashr etildi. O'zbekiston Prezidentining farmoni bilan 1996-yil —



“Amir Temur yili” deb e’lon etilishi va bu sana jahon miqyosida nishonlanishi Amir Temur nomi oqlanib, o‘zbek xalqiga butunlay qaytganiga yorqin dalildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

- 1.Ibn Arabshoh “ Amir Temur tarixi” Toshkent 2021 y
- 2.Lyusen Keren “Amir Temur Saltanati”T-2020
- 3.Marsel Brion “Amir Temur” T-2022
- 4.Sayfulla Ikromov “Sohibqiron Amir Temur”Toshkent 2022